



UDK:39.323.1(575.1)

Samad XUDAYNAZAROV,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.n

E-mail: khudaynazarovsamad69@mail.ru,

Nargiza JAMALOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi

Dotsent, PhD J.Shodiyev taqrizi asosida

ETNOMADANIY QADRIYATLAR – O'ZLIKNI ANGLASH OMILI

Annotation

Ushbu maqolada, etnomadaniyatning mohiyati, o'zlikni anglashdagi o'rni, etnomadaniy qadriyatlarni yosh avlod kamolotidagi bugungi o'rni va rolga oid masalalar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Etnomadaniyat, ob'ekt, kategoriya, qonuniyat, struktura, funksional xususiyat, xalq me'morchiligi, a'nana, udum, urf-odat, rasm-rusum, marosim.

ETHNOCULTURAL VALUES – A FACTOR OF IDENTITY

Annotation

This article analyzes the essence of ethnoculture, its role in self-awareness, and the significance and impact of ethnocultural values on the development of the younger generation.

Key words: Ethnoculture, object, category, regularity, structure, functional characteristics, folk architecture, tradition, custom, ritual, ceremony.

ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ ЦЕННОСТИ – ФАКТОР ВОСПРИЯТИЯ ИДЕНТИЧНОСТИ

Аннотация

В статье анализируется сущность этнокультуры, ее роль в самосознании, а также современное место и роль этнокультурных ценностей в развитии подрастающего поколения.

Ключевые слова: Этнокультура, объект, категория, закономерность, структура, функциональный признак, народная архитектура, традиция, обычай, обряд, ритуал.

Kirish. Turli madaniyatlararo muloqot maydonlari yanada kengayib, tobora chuqurlashib borayotgan globallashuv, integratsiyalashuv, to'la axborotlashuv zamonida o'zligini anglagan, ertasini o'ylagan, uyg'oq har bir xalq, millat, jamiyat, shaxs o'z madaniy an'alarini shu bilan birga umumbashariy madaniy qadriyatlarni ko'z gavharidek asrab-avaylab uni yangi ma'no-mazmun bilan boyitib, kelajak avlodlarga yetkazishdek mas'uliyatni bajarishga hamisha qodir bo'ladi. Aksincha, o'z madaniy qadriyatlariga nisbatan beparvolik, loqaydlik boshqa bir madaniyatni iste'molchisiga aylantirib qo'yadi.

Barchamizga ayonki, Mustaqillik sharofati bilan ko'p ming yillik tarixga ega etnomadaniy qadriyatlarimiz tiklanib, turmush tarzimizdan munosib o'rin egalladi. Ayniqsa, Yangi O'zbekistonda Muxtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari va ko'rsatmalari asosida ko'p ming yillik tarixga ega xalqimiz madaniyati negizlariga yanada ko'proq e'tibor qaratilmoqda va uning nafaqat milliy, mintaqaviy balki jahon sivilizatsiyasi tizimida munosib o'z o'rniga ega bo'lishi uchun sharoitlar yaratilmoqda. "Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz"[1].

Tarixan milliy va umumbashariy xususiyatlarning o'zida mujassamlashtirgan etnomadaniy qadriyatlardan jamiyatimiz ravnaqi hamda ertangi hayotimiz davomchilari bo'lgan barkamol avlodni har jihatdan sog'lom va ma'naviy-ma'rifiy yetuk insonlar qilib tarbiyalashdek ezigulikka xizmat qiladi.

Ma'lumki, Davlatimiz tomonidan inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, xalqimizning ko'p ming yillik moddiy va ma'naviy merosiga, uning qadimiy va hamisha navqiron an'alarini rivojlantirishga har tomonlama g'amxo'rlik qilib kelinmoqda. Jumladan, ezigulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" g'oya asosida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi

O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan miqyosi ulkan ezgu maqsadlar, amaliy ishlar, vazifalar, tub islohotlar, yangilanishlar shuningdek, "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi doirasidagi ishlar, Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish borasidagi ezgu amaliy ishlar, xususan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi ezgu maqsadlar xususan 75-maqsadda: Tasviriya va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish, 76-maqsadda: Madaniyat va san'at sohalari yanada rivojlantirish., 77-maqsadda: O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish, 78-maqsadda: Milliy kino san'atini rivojlantirish kabilar va boshqalar "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans" g'oyasini ruyobga chiqarmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5040-son 26.03.2021 qarori[2], Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 02.02.2022 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-112-son qarori[3], Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida 2017 yil 8 iyuldagi, O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2017 yil 17 dekabrda, "Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.11.2018 y. PQ-3991-son Qarori, "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.11.2018 y. PQ-3990-son Qarori[4], "Lazgi" xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.09.2020 yildagi PQ-4843-son Qarori[5], "Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivalini o'tkazish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2021 y. PQ-5098-son Qarori, "II Xalqaro baxshichilik san'ati festivaliga tayyorgarlik ko'rish va baxshichilik san'atini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2021 y. PQ-5070-son Qarori hamda "Nurli navolar" xalqaro folklor festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida O'zR VM 27.06.2018 y. 486-son qarori[6] va boshqalar yuqoridagi fikrimizga dalillardir.

Milliy va umumbashariy qadriyatlarni tub negizlarini o'zida mujassamlashtirgan etnomadaniy qadriyatlarni tiklash, saqlash, yangi an'analar bilan boyitib borish bir tomondan, ma'rifatli jamiyat g'oyasini yuzaga chiqishida, boshqa tomondan, globallashuv davrini sinovlariga bardosh berishda ham yanada muhim ma'no va ahamiyatga egadir.

Etnomadaniy qadriyatlarni jamiyatga, taraqqiyotiga, inson va millat kamolotiga xizmat qilishga to'la yo'naltirish, uni fan sifatida o'rganish mustaqillik bois yuzaga chiqdi va "Etnomadaniyat" mustaqil fan sifatida ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimidan mustahkam joy olib bormoqda. Albatta, bu jamiyatda va olamda kechayotgan voqealar bilan sababiy bog'lanishlarga ham ega bo'lgani holda, bir tomondan, ozod va erkin jamiyatda kechayotgan tub madaniy - ma'rifiy o'zgarishlar, islohatlar, o'zlikni anglash va yanada mukammal taraqqiyot ehtiyojlariga aloqador bo'lsa, boshqa tomondan, global maydonlarda kechayotgan ayrim ambitsiyalar, turli madaniy eskalatsiyalar, konfliktlar, bosimlar, ekspansiyalar, ma'naviy-axloqiy hurujlar, g'oyaviy-mafkuraviy tajavuzlar, ta'sir orbitasiga tortishlar, "ommaviy madaniyat" va estetik sayozlik kabilari ham buni yuzaga kelishiga, fan sifatida o'rganishga sabablardan, deb o'ylamiz.

Xullas, "Etnomadaniyat" jamiyatshunoslik, insonshunoslik fanlari olamida yangi yo'nalish bo'lib, alaqachon bu fan sohasi bo'yicha ilmiy izlashlar olib borilmoqda, ushbu fan mavzulariga oid maqolalar, o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratilmoqda.

Etnomadaniyat fani – o'z o'quvchisini necha ming yillar davomida xalq yaratgan (bu o'rinda xalqimiz) moddiy va ma'naviy boyliklari, qadriyatlari mohiyati, qudrati, imkoniyati va ahamiyatini bilishiga, ularga inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti manfaatlarini nuqtai nazardan yondoshishga, ilmiy tadqiq qilishga, yangi an'analar bilan boyitishga, saqlashga, kelajak yetkazishga, o'zligini anglashga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga, avlodlarni o'z madaniy an'alariga sadoqat ruhida tarbiyalashga hamda jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishda bag'oyat muhim ahamiyatni kasb etadi.

Xalq moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rgandigan fan sohasi "Etnomadaniyat" haqida gap borar ekan, avval, "etnomadaniyat" tushunchasiga izoh berib o'tish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Bu tushuncha borasidagi soha olimlari qarashlari va manbalar tahlilida umumiylik, bir xillik ko'zga tashlanadi. Ulardan kelib chiqib, aytish mumkinki, "etnomadaniyat" tushunchasi "etnos" va "madaniyat" so'zlarining uyg'unligidan tashkil topgan bo'lib, "etnos" qadimgi yunon tilida xalq, urug', to'da, kishilar birligi, qabila, o'zga qabila, nasl ma'nolarida ishlatilgan. Madaniyat esa, arabcha "madina" va "iyat" so'z yasovchi qo'shimchasining birikishidan hosil bo'lgan bo'lib, aynan "shaharga oid", ilm-fan, ma'rifat, tarbiya maskani degan ma'noni anglatadi[7]. Muxtasar qilib aytganmizda, etnomadaniyat - biror xalqning madaniy olamining tub tarixiy negizlari, genezisi, moddiy va ma'naviy qadriyatlari, madaniy turmush tarzi, urf-odatlar, rasm-rusumlari, an'ana-yu tutumlari, bayram-u marosimlari, e'tiqodi, tili, madaniy-ma'rifiy kashfiyotchiligi, kelajak ideallari, ijtimoiy-madaniy munosabatlari, o'zga xos identligi, nodir va betakror fenomenal xususiyatlari va boshqalarni ham o'rganadi.

Umuman olganda, Etnomadaniyatning tadqiqot obyekti doirasiga - xalq donishmandligi, xalq falsafasi, xalq e'tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq urf - odatlari, rasm-rusum, marosimlari, xalq ijodi, xalq o'yinlari, dam olish madaniyati, xalq pazandaligi, milliy liboslar, xalq me'morchiligi, xalq amaliy san'ati, xalq tabobati, xalq turmush madaniyati va boshqalar kiradi[8].

Etnomadaniyatning predmeti doirasiga - etnosning tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiat va jamiyat bilan birgalikda yaratgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar dunyosi kiradi. Umumlashtirib aytganda: Etnomadaniyat fanning predmeti doirasiga – xalq tomonidan ko'p ming yillar davomida yaratilgan va amal qilingan moddiy va ma'naviy qadriyatlar dunyosi, uning millat, jamiyat, shaxs kamolotidagi hamda umumdunyo madaniyati tizimidagi o'rni, taraqqiyot tizimidagi roli, o'ziga xosligi, evalyusion asoslari, mintaqaviy va jahon madaniyati bilan o'zaro aloqadorligi, ularning bir-birlariga ta'siri, bog'liqligi, yangi an'analar bilan boyib borishi, zamonaviy hayotdagi o'rni va ahamiyati kabilari ham kiradi.

Boshqa fan sohalariga singari etnomadaniyat fani ham o'zining tadqiqot obyekti, predmetiga, maqsad va vazifalariga, tadqiqot usullariga, mustaqil kategoriya va tushunchalariga, rivojlanish qonuniyatlariga, tarkibiy strukturasi, funksional xususiyatlariga ega.

Etnomadaniyat - xalq, millat yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari, qadriyatlari, tajribalarining o'zak qismi, yadrosidir. Milliy madaniyat mudom ushbu o'zakka, yadroga qurilgan, ular orqali milliy xususiyat, shakl va mazmun kasb etgan. O'zbek xalqining tarixiy-madaniy paradigmasiga (misol, namuna) aylangan etnomadaniyat bir tomondan, uzoq rivojlanish jarayonida to'plangan, muqim, barqaror, ba'zan konservativ tajribalarni, qarashlar va artefaktlarni o'z ichiga olsa, ikkinchi tomondan, uning janr, tur va shakllarida innovatsiyaga, transformatsiyaga moyillik dialektik tarzda bir-birini to'ldirib, milliy madaniyatni shakllantirgan. Etnomadaniyat va milliy madaniyat o'rtasida yuzaga keladigan ushbu dialektik aloqalarni, aloqalarni va ideologik hodisalarni tadqiq etish muhim nazariy-falsafiy ahamiyatga egadir[9].

Etnomadaniyat yoshlarga xalqimizning urf-odat, an'ana va qadriyatlari kabilardan bilim berib qolmasdan, balki ularda etnomadaniy qadriyatlarga hurmat, sadoqat, vatanparvarlik, insonparvarlik, madaniy yaratuvchilik, ziyoliylik kabi fazilatlarini ham shakllantiradi. Umuman ularni komil inson bo'lib voyaga yetishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, etnomadaniyat kishida o'zlikni anglashga, tarixiy xotirani tiklashda, boshqa etnoslar madaniyatiga hurmat kabilarni ham shakllantiradi.

Etnomadaniyatdagi milliylik va umuminsoniylik, an'anaviylik va zamonaviylik, barqarorlik va o'zgaruvchanlikni ham o'zida namoyon qiladi[10].

Etnomadaniyat - etnos yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni shunchaki tahlil qilmasdan, balki uning rivojlanishi, saqlash, kelajakka yetkazish kabi murakkab funksiyani ham bajaradi.

Xulosa. Etnomadaniyat o'z o'quvchisiga etnos madaniyati tarixi, evolyusiyasi xaqida bilimlarni beradi hamda o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid muhim ilmiy ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyatini ham shakllantiradi. Shuningdek, xalq etnopedagogikasi, etnopsixologiyasi, entoestetikasi, etnoekologiyasi, ma'naviy axloqiy meyorlari, urf-odatlar, rasm-rusumlari, an'anaviy oila, turmush marosimlari, bayramlari, e'tiqodi, diniy tasavvurlar va qarashlari, yaratgan moddiy va ma'naviy ne'matlari, tarixiy xotira va toponimlari, falsafasi, donishmandligi, og'zaki va yozma ijodiyoti, amaliy san'ati, me'morchiligi, dam olish madaniyati, pazandaligi, tabobati, sport o'yinlari, milliy liboslar, turmush madaniyati va boshqalarga oid bilimlarni beradi va shu orqali o'zlikni anglashga ham xizmat qiladi.

Har bir etnos o'zining mustaqil, betakror, behad noyob madaniy qadriyatlariga ega va uning ijodkoridir. Mudomki, madaniyat hech qachon ellarni zidlashtirmaydi balki birlashtirganidek, etnomadaniyat bu maydonda turfalikni ta'minlash orqali umumdunyo madaniy ravnaqiga hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
2. Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида 26.03.2021 Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. <https://president.uz/uz/lists/view/4309>
3. <https://lex.uz/docs/5849580>

4. <https://president.uz/uz>
5. <https://lex.uz>.
6. <https://nrm.uz>.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Э Ҳарфи «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. –Тошкент: -Б. 247. www.ziyouz.com кутубхонаси., Очилдиев А. Маданият фалсафаси <http://www.faylasuf.uz/>., Нишонова О. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти. –Т.: “Фан”, 2013. -Б. 6-7., Гулметов Э. Қобилжонова Т., Эрназаров Ш., Маврулов А. Маданиятшунослик.-Т.: ФТДҚ, ДИТАФ, 2000. –Б.8;
8. Қорабоев У. Маданият масалалари. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, Давлат илмий нашриёти, 2009. -Б.41
9. Нишонова О. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти. –Т.: “Фан”, 2013. -Б.3.
10. Нишонова О. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти. Фалс.фан.док... дис. авторефер. –Т.: ЎзМУ, 2016. –Б. 29.